

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MA’NAVIY
DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA
KITOBXONLIK DAN FOYDALANISH**

Masharipova Sevinch Gulmirza qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Masharipova0906@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma’naviyatlilinson bo‘lib yetishishida zarur bo‘lgan tushunchalar, kitobxonlik madaniyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kitobxonlik, ma’naviyat, renessans, islohot, qaror, dastur.

Bugungi kunda mamlakatimizda kelajak avlodning ta’lim-tarbiyasini yanada isloh qilish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022 — 2026-Yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning V bobida “Mamlakatimizni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash” va “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston buniyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash maqsadi ilgari suriladi [1]. Qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlarning ilm olishi, o‘z kasbining yetuk mutaxassisini bo‘lib yetishishi uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy va ma’rifiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq

bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Yoshlarning ta’lim-tarbiya olishlariga mas’ul bo‘lgan barcha o‘rinlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarildi.

Darhaqiqat, kelajak avlodning ma’naviyatini yuksaltirishda kitobxonlikning o‘rni nihoyatda katta. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271 sonli qarorining qabul qilinishi kitobxonlik borasidagi islohotlarning boshlanishi bo‘ldi[2]. Ushbu qaror asosida kitobxonlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda “Yosh kitobxon” ko‘rik tanlovi o‘tkazib kelinadi. Ushbu tanlov 4 bosqichda tashkil qilinib, unga 10 yoshdan boshlab qatnashish imkoniyati mavjud. Respublika bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar munosib tarzda rag‘batlantiriladi. Bu kabi rag‘batlantirishlar orqali yoshlarni yanada intiluvchan, ilmga chanqoq qilib tarbiyalash nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” degan fikrni bildirgan edilar[3]. Darhaqiqat, yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni yosh avlodni ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Har yili maktablarda tashkil qilinadigan “Bir farzandga bir kitob” aksiyasi doirasida kitob yarmarkalarining tashkil qilinishi fikrimizning yorqin misoli bo‘la oladi.

“Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” deb ta’riflagan edilar [4]. Bu ta’rifda inson faoliyatining barcha ma’naviy qirralari qamrab olingan bo‘lib, biz bundan buyon ma’naviyat haqida so‘zyuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatini yuksaltirishda bevosita o‘qituvchining roli nihoyatda katta. Ma’naviy dunyoqarashga ega o‘quvchilarni tarbiyalash uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zida ma’naviy ko‘nikmalar yetarli darajada bo‘lishi talab etiladi. Shaxsning millat vakili sifatidagi maqomida: o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas’uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san’at, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo‘lish va uni qo‘llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida faollik va boshqalar bo‘lsa; shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi ma’sullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolariga befarq bo‘lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligini anglash, insonning tabiatining bir bo‘lagi ekanligi, uni asrashda ma’sullik va boshqa bir qator tushunchalarni kiritishi mumkin.

Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurini yuksaltirish ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining tub mohiyatini tashkil etadi [5]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida Davlat ta’lim standarti belgilagan mavzular asosida o‘quvchilarga muayyan bilimlar beriladi. O‘qish

ko‘nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o‘quvchilarni barkamol yetuk inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazda bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish dasturining maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘qish mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar to‘g‘ri, ongli, ravon, tez va ifodali o‘qishgao‘rgatiladi. Bolalar bu jarayonda kitob bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘la boradilar va ularga kitobga muhabbat tuyg‘usi uyg‘otiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, bir qator tavsiyalar, pedagogik va psixologik jarayonlarda kechadi, buni har bir ota-onada kitob tanlashda e’tiborga olishi vaahamiyatberishi talab etiladi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

- 1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022 — 2026-Yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
- 2.** “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 13 - sentabrdagi PQ - 3271 son qarori.
- 3.** Sh.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19 - yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan.
- 4.** Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. - 176.
- 5.** D.Muminova “ Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish”. Monografiya. Namangan -2019.